

SOBIQ ITTIFOQ “QAYTA QURISH” SIYOSATINING TANAZZULI: O‘ZBEKISTON ZIYOLILARINING SIYOSIY JARAYONLARGA MUNOSABATI

Ochilova Dilobar Juraqulovna

Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10782236>

SSSR parchalanganidan keyin xalqaro olimlar Sovet respublikalarining mustaqillikka va kapitalizmga o‘tish jarayonidagi taqdiriga e‘tibor qaratdilar. Shu bilan birga, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O‘zbekistondan iborat besh respublika vakili bo‘lgan Markaziy Osiyoga kamroq e‘tibor qaratildi va nisbatan kam o‘rganilgan. Buning asosiy sababi sifatida mintaqaning rivojlangan g‘arb olamidani uzoqligi (Boltiqbo‘yi yoki Kavkaz mintaqasiga nisbatan), dengizgacha bo‘lgan masofa uzoqligi, g‘arb bilan integratsion aloqalarning olib borilishi sustligi bilan bog‘lash mumkin.

SSSR bosh kotibi Y.Andropov (1982-1984) topshirig‘i asosida ishlab chiqilgan “qayta qurish” g‘oyasi uning o‘limidan so‘ng M.S.Gorbachev tomonidan 1985-yildan boshlab amalga oshirila boshlandi.

“Qayta qurish” siyosatini o‘rgangan olimlar uni davriylashtirishda ikkiga bo‘lib o‘rganishni tavsiya etishadi:

1. Birinchi bosqich: 1985-1986-yy. Bu bosqichda iqtisodiy tarmoqlarni rivojlantirish va inson omilini rivojlantirish siyosati yuritilgan.
2. Ikkinchi bosqich: 1987-1989-yy. Mazkur bosqichda davlat barcha sohalarda regulyator sifatida islohotlarni amalga oshirishi belgilangan edi.

Mazkur rejalarini amalga oshirishda qonun chiqaruvchi hokimiyat organlarining ham o‘rnini alohida e‘tirof etib o‘tish lozim. O‘sha paytda bu funksiyani bajargan SSSR halq deputatlari soveti tarkibi 2250 [1] kishini tashkil etib uning tarkibiy qismida salmoqli o‘rinni ziyolilar xususan ijodiy ziyolilar egallaganligini ko‘rishimiz mumkin. Ularga hududiy ma‘muriy birliklardan saylanishdan tashqari alohida 75 o‘rin ajratilgan. Shu bilan birga 1989-yilda bo‘lgan navbatdagi saylovlarda KPSS dan ajralgan holda saylangan deputatlar soni ham 293 tani tashkil etdi [2: 125-127], albatta ular jamiyatda ma‘lum mavqe‘ga ega ziyolilar qatlami vakillari bo‘lganligi ham SSSR ning so‘nggi kunlarida ziyolilarning mustaqil fikr va biryoqlama qarashdan voz kechish borasidagi amaliy harakatlari sifatida ko‘rsatilishi mumkin.

Lekin shuni alohida qayd etib o‘tish kerakki, ushbu davrda qonun chiqaruvchi hokimiyat vakillari (diniy asosdagi repressiv siyosat bilan birga) ham ta‘kibga uchraganligini ko‘rishimiz mumkin, jumladan, 1985-yil yanvaridan 1986-yilga qadar saylangan 177 mahalliy deputatdan 34 tasi qayta saylangan [3: 59]. Ularning aksari siyosiy jarayonlar asosida mavjud lavozimidan bo‘shashgan.

Yana shuni alohida qayd etib o‘tish kerakki, aynan 1989-yildagi saylovlar ko‘pchilik tadqiqotchilar va aksar g‘arb mamlakatlari tomonidan SSSR bo‘lib o‘tgan yagona haqqoniy shaffof saylov deb e‘tirof etiladi.

O‘zlik tushunchasini anglashda moddiy va madaniy meros obektlari ham alohida o‘ringa ega hisoblanib, “qayta qurish” davrida mazkur masala borasida mahalliy intelligensiya tomonidan “Zamon va madaniy meros” nomli bir qancha davra suhbatlari o‘tkazilib, unda jadid adabiyotisiz yaxlit mahalliy madaniy meros tushunchasini tasavvur etish imkonsizligi qayd etiladi. [10: 8]

Shu bilan birga, 80 yillarda boshlangan demokratlashuv jarayonining debochasi sifatida o'zbek tili mavqe'ini davlat tili darajasiga olib chiqish masalasi ham milliy ziyolilar va aholining keng qatlami tomonidan qo'llab-quvvatlandi, mazkur masala bilan bir qatorda milliy tarixni yoritish va uni tiklash masalasi ham formal va noformal ko'rinishlarda ko'tarilgani V.Firman tomonidan qayd etiladi. [11: 366-367] Lekin til masalasida bir narsani alohida qayd etib o'tish lozim, ya'ni hokimiyat vakillari va elitar qatlamning katta qismi uchun russ tili asosiy til sifatida mazkur davrda shakllanib bo'lgan edi. Mazkur jarayon asoratlari bugungi kunga qadar saqlanib qolganligini guvohi bo'lmoqdamiz. [12] Mazkur jarayonlar nihoyasi sifatida 1989 yil 21 oktabrda qabul qilingan "O'zbekiston SSRning davlat tili haqida"gi Qonuni ko'rsatish mumkin. [13] Yuqoridagi masala etnik ko'pchilik tomoninigina o'ylab qabul qilingan qaror sifatida talqin etilishi mutlaq haqiqatga zid sanadaladi, xususan, 1991 yilgi ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda 3457 tamaktabda ingliz, 2886 ta maktabda nemis, 1515 ta maktabda fransuz, 68 ta maktabda ispan, 3 ta maktabda urdu, 13 ta maktabda hind, 10 ta maktabda arab, 13 ta maktabda fors, 3 tasida Xitoy bir qancha o'quv yurtlarida darslar milliy guruxlar tillarida o'qitiladigan maktablar uchun kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Chunonchi, Toshkent va Sirdaryo pedagogika institutlarida darslar qozoq tilida o'qitiladigan umumta'lim maktablari uchun mutaxassislar, Samarqand, Buxoro, Termiz pedagogika institutlari va Kosonsoy, Chust pedagogika bilim yurtlarida fanlarni tojik tilida o'qitiladigan mutaxassislar tayyorlash ishlari boshlandi. [14]

XX asr 80-yillar so'nggida ittifoq tomonidan diniy va milliy masalalarda siyosat biroz yumshaganligini ko'rishimiz mumkin. Ayni shu davrda ro'yxatdan o'tgan diniy tashkilotlar soni 250 tagacha ko'payganligi va imom-xatib lavozimi joriy etilganligini qayd etib o'tish lozim.

"Qayta qurish" siyosati birpartiyalik tizimiga ham barham berishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan davr hisoblanadi. Mamlakatda mavjud bo'lgan plyural harakterga ega ziyolilar tomonidan bir qancha siyosiy birlashma va partiyalar tuzildi. Xususan, 1988-yil 11-noyabrda "Birlik" harakatiga asos solindi. Biroz vaqt o'tgandan so'ng "Erk" partiyasi tuzilgani e'lon qilindi. Internatsional ko'rinishga ega bo'lgan, o'z tarkibiga o'zbek va qozoq ziyolilarini birlashtirgan "Turkiston" harakati tuzilishi ham aynan shu davrda sodir bo'ldi.

Yuqoridagi jarayonlarni tezlashtirga omil sifatida "paxta ishi"ni ham keltirib o'tish kerak. Zero "qayta qurish" davri bilan paralell ravishda olib borilgan mazkur ish davomida (1986-yilda 132 ta, 1987-yilda 143 ta ayol) ko'plab ayollar o'ziga o't qo'ygan. Bir qancha siyosiy elita vakillari qamalgan. Buning natijasida boshqaruv apparatida mahalliy aholi vakillaridan vakillar defitsiti yuzaga kelgan.

Milliy adabiyotimizda qayta qurish davriga mos tarixiy haqiqatni tarannum etuvchi zamonaviy qahramon masalalariga ham muayyan darajada e'tibor qaratila boshlandi. Ijobiy qahramonning yangi bir shakli, ya'ni "kamchilikli ijobiy qahramon" yaratish an'anasi paydo bo'ldi. Chunonchi, Omon Muxtorning "Davr mening taqdirimda", "Tug'ilish" romanlari, Odil Yoqubovning "Muqaddas", "Tillauzuk", "Bir felyeton qissasi" asarlarida, shuningdek boshqa yozuvchilarning bir qancha asarlarida ham shu holatni ko'rish mumkin. Shu bilan birga, bu davrda adiblarimizning zamonning o'zgara boshlaganligini yorqin tasavvur etuvchi asarlari nashr qilina boshlandi. Umuman o'zbek milliy adabiyotidagi ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar, bir tomondan, uning rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, ikkinchi tomondan esa bunday bahsli holatlara dabiyotimizning to'g'ri yo'lini topishiga imkon bergan. [15]

Umuman olganda, XX asr 80-yillari ikkinchi yarmi adabiyotining yangilik sari harakatini kuzatishimiz mumkin. Ilgari ta'qib etilgan mavzular tiklandi. Cho'lponning "Kecha va kunduz" romani erkinlikka yuz tutdi. 1988-yilda P. Qodirovning "Avlodlar dovoni", X. To'xtabayevning "Mungli ko'zlar", Murod Muhammad Do'stning "Lolazor", N. Kabirovning "Unutilgan sohillar", Omon Muxtorning "Egilgan bosh" kabi romanlarini nashr etilishi o'zbek milliy adabiyotida erkinlik shabadalarining natijasi, deb baholandi. 1988-89-yillarda milliy ruhda yozilgan 100 dan ortiq hikoyalar e'lon qilindi. O'zbek milliy adabiyotida Cho'lponning tarixiy o'rni masalasiga ham muayyan darajada e'tibor berila boshlandi. Shu o'rinda, ayniqsa E. Karimovning qayta qurish davri o'zbek adabiy-badiiy muhiti mohiyatini ochib berishdagi xizmati katta bo'ldi. Shu o'rinda, qayd qilish kerak, adabiyot va san'atda axloqiy ong masalasining ko'tarilishi mafkuraviy madaniy hayotda konseptual yangilanishlar sodir bo'layotganini anglatadi. Lekin shunga qaramasdan qayta qurish davrida bu sohada turli qarashlar ham mavjud edi. Masalan, Abdurauf Fitrat ijodini o'rganish borasida xolis va noxolis fikrlar bildirilgan, bu esa mustaqillikka erishish arafasida ziyolilarning muayyan qismi sovet mafkuraviy bosimidan ozod bo'la olmaganligidan darak beradi. [16:18]

Teatr va kinematografiya sohasi ham qayta qurish davrida ma'lum bir transformatsiyaga uchraganligini ko'rishimiz mumkin. Xususan 80 yillar so'nggiga kelib teatrda sahnalashtirilayotgan spektakllar sonida mahalliy spektakllar soni bir muncha oshganligini aytishimiz mumkin. Garchi O'zbekiston teatr san'atini qayta qurish strategiyasi to'la amalga oshmagan bo'lsa-da, teatr arboblari jamiyatda ro'y bergan oshkorlik va demokratik mayllar ta'sirida hayotdagi voqelikni xaspo'shlaymay, haqqoniy aks ettiruvchi sahna asarlari yaratishga kirishdilar. Hamza nomidagi akademik drama teatrida O'lmas Umarbekovning "Kurort" (1986-y.), Ch.Aytmatovning "Asrga tatigulik kun" romani asosida ishlangan mahobatli spektakl (1986-y.), Sharof Boshbekovning "Taqdir eshigi" (1988-y.), Abduqahhor Ibrohimovning "Puch" (1990-y.) asarlarining sahnalashtirilishi shundan dalolat beradi. Mazkur teatrda qo'yilgan Shekspirning "Koriolan" tragediyasi, N.V.Gogolning "Revizor" komediyasi, Maqsud Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" tragediyasining yangi talqini, S.Sirojiddinovning tarixiy mavzudagi "To'maris" dramasi, Izzat Sultonning kontaminatsiya usulida, Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlari" asosida ishlagan va katta tortishuvlarga sabab bo'lgan "Abdulla Qodiriyning o'tgan kunlari" dramasi ham zamonaviy jarangladi. Muqimiy nomidagi musiqali drama va komediya teatrida sahnalashtirilgan "Zo'ldir" (A.Ibrohimov; M.Bafoyev musiqasi), "Shayton va muridlar" (O.Yusupov; S.Jalil musiqasi), "Yosh gvardiya" teatrining "Mushkul savdo" (Mashrab Boboyev asari), Yosh tomoshabinlar teatrining "Eski Jo'va gavroshlari" spektakllari zamonaviy voqelik aks etgani, davr muammolari ko'tarilgani bilan tomoshabinlarga foydali va qiziqarli bo'ldi. Shu tariqa izlanishlar viloyat teatrlarida ham bo'lib turdi, albatta. [4: 125-127]

S. Boboyev, A. Hamdamov, O. Ergashev, R. Malikov, S. Nazarmuhamedov, J. Fayziyev, I. Ergashev, H. Fayziyev kabi kinematografiya sohasi vakillar qayta qurish davrida milliy o'zlikni anglash masalasi ko'tarilgan bir qancha kinofilmlar olishga erishganliklarini e'tirof etish kerak.

O'zbekistonda demokratik istiqbollar postsovet o'zgarishlaridan ancha oldin intellektual muxolifat tomonidan sezilgan edi, bu esa unga o'z niyatlarini ancha uyushqoqlik bilan e'lon qilish imkonini berdi. O'zbek ziyolilari harakatining o'sishi boshqa postsovet tuzumlaridagi ana shunday harakatlarning institutsionallashuvi bilan hamohangdir. Monpartiyaviy tizimning

yemirilishi va ko'ppartiyaviylikka o'tish O'zbekistonda ham siyosiy va partiyaviy qurilishni optimallashtirdi.

1. O'zbekistonda ushbu davrdagi ziyolilarning siyosiy qarashlari nuqtai nazaridan ikki toifaga bo'lish mumkin.
2. Toifa vakillari Ittifoq tarkibida qolish mavjud tuzum bilan hamkorlik asosida faoliyat yuritish tarafdori;
3. Mustaqillik uchun kurashgan, dastlab, davlat tili va boshqa masalalarda milliy manfaatni qo'llash asosida siyosiy maydonga kirib borgan kuch tarafdorlari.

Yuqorida sanab o'tilgan ikkinchi toifa vakillarining bir qismi 1988 yilda "Birlik" partiyasi tashkil etishdi. "Birlikda" taniqli o'zbek ziyolilari – universitet professorlari, musiqachilar, yozuvchilar, olimlar umumiy til topdilar. O'zbek jamiyatining barcha ijodiy platformalari qaysidir ma'noda intellektual referent harakati sifatida namoyon bo'ldi, bu esa uning ommaviylashuvi va ommalashishini qo'llab-quvvatladi. Mazkur jarayonlarni o'rgangan A.Skriperskix "Birlik"ning o'zagi sifatida M.Solih, A.Po'latov, V.Inoyatova, D.Hasanov, Z.Haqnazovlarni e'tirof etadi. Partiya katta shuhrat qozondi, bu unga ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bazasini sezilarli darajada kengaytirish imkonini berdi. Respublika hokimiyati bilan qarama-qarshilikda M.Solihni qo'llab-quvvatlayotgan shahar ziyolilari va talabalar orasida "Birlik" ning xatti-harakatlari tobora ortib bordi. 1989 yilda Farg'ona vodiysida turk-mesxeti pogromlarining asosiy harakatlantiruvchi kuchi aynan talabalar bo'ldi. Mafkuraviy jihatdan "Birlik" dasturi ular uchun o'sha paytda paydo bo'lgan boshqa demokratik harakatlar kabi ancha jozibador edi.

- Muhammad Solih (Salay Madaminov) — o'zbek shoiri, ssenariynavis, "Erk" harakati asoschilaridan biri. O'zbekiston Oliy Kengashi deputati. Ayni paytda siyosiy qochqin.
- Abdurahim Po'latov (Po'lat) — o'zbek olimi, texnika fanlari doktori, "Birlik" tashkiloti asoschilari va yetakchilaridan biri. Hozirda AQShda yashaydi.
- Vasila Inoyatova – huquq faoli, «Ezgulik» inson huquqlari tashkiloti rahbari. Dadaxon Xasanov – mashhur o'zbek shoiri va xonandasi, "Birlik" harakati asoschisi. Zohid Xaknazarov - dirijyor, bastakor, professor, "Birlik" hamraisi.

Sovet makonida "Birlik" asosan milliy o'zbek uyg'onishiga yo'naltirilgan, turli ko'rinishlarda tushunilgan va talqin qilingan.

Ammo mazkur harakat vakillari o'rtasidagi ichki ziddiyatlar uning bir nechta tarkibiy qismlarga bo'linib ketishiga sabab bo'ldi ("Erk" partiyasi, "Ozod dehqonlar partiyasi" v.b.) va keyinchalik birinchi prezidentlik saylovidan keyin ta'sir doirasi susayib amaldagi hokimiyat vakillari bilan kelishmaslik ortidan faoliyati O'zbekistonda tugadi.

O'zga postsovet davlatlari bilan solishtirgan holda shuni aytishimiz mumkinki, ko'pchilik tadqiqotchilar va omma ongida shakllanib qolgan Markaziy Osiyodagi mustaqillik uchun kurash harakatsiz holatda bo'lmagan. Bu hududda ham ziyolilar siyosiy partiyalar tuzishda, qonunchilik bazasini takomillashtirishda asosiy o'rin olgan shaxslar sanalgan.

Milliy ruhiyat va o'zgarishlar ruhiga mos ommaga iste'mol uchun adabiy, kino, teatr va boshqa ijodiy soha vakillari ma'naviy ozuqa yetkazib berishgan. Bu o'z navbatida mustaqillikka erishish uchun ma'lum bir ma'noda xizmat qilgan.

References:

1. Конституция (Основной закон) Союза Советских Социалистических Республик (принята на внеочередной седьмой сессии Верховного Совета СССР девятого созыва 7

- октября 1977 г.) С изменениями и дополнениями от:1 декабря 1988 г. (http://constitution.garant.ru/history/ussr-rsfsr/1977/red_1977/5478733/).
2. [UNION OF SOVIET SOCIALIST REPUBLICS, Date of Elections: 26 March to 23 May 1989 \(Congress of People's Deputies of the USSR\); 26 and 27 May 1989 \(Supreme Soviet of the USSR\)](#) // Report / Inter-Parliamentary Union, UN. .P-125-127.
 3. Уяма, Томохико. "Origins of the Differences in Political Systems of the Central Asian States: Threat Perception in the Perestroika Period." Journal of International Analytics 12, no. 1 (2021): 55–73. <https://doi.org/10.46272/2587-8476-2021-12-1-55-73>.
 4. N.Sayfullayev. DEVELOPMENT OF UZBEK THEATER ARTIN THE HISTORICAL AND THEORETICAL ASPECT // LOOK TO THE PAST VOLUME 4, ISSUE 10. ISSN 2181-9599Doi Journal 10.26739/2181-9599.T.: 2021. P. 7.
 5. История Советской России. Ратьковский И. С., Ходяков М. В. СПб.: Издательство "Лань", 2001. - 416 с.
 6. Юнусова Х. Социально-экономические процессы и духовная жизнь в Узбекистане в 80-х годах XX века/Автореф. дисс. док. ист. наук.–Ташкент: АН РУз, Институт истории, 2009.–48 с.
 7. Согрин В. Новый взгляд на историю западного капитализма//Вестник РАН. 1993. № 8.
 8. Васильева О. «Республики во время путча» // В сборнике «Путч. Хроника тревожных дней». — Издательство «Прогресс», 1991.
 9. Аскарлов М. Анализ категорий идентичности в конце XX – начале XXI века на территории современного Узбекистана (на основе англоязычных материалов) // Научный результат. Социальные и гуманитарные исследования: электронный журнал. 2019. Т. 5. Вып. 4.С. 62-77. URL: <http://rrhumanities.ru/journal/issue/4-22-2019/> (дата обращения: 18.07.2020).
 10. Мамажонов Д. Ўзбекистонда қайта қуриш даврида маданий ҳаёт (1985-1991 йиллар)// Автореф. дисс. фал. фан. док.–Тошкент: ЎЗР ФА. Тарих институти, 2018.–8 б.
 11. William Fierman Political development in Uzbekistan: democratization? //Conflict? Cleavage, and change in Central Asia and the Caucasus. Edited by K. Dawisha, B. Parrot. Cambridge University Press, 1997. 366-367 pp.
 12. <https://www.gazeta.uz/uz/2021/05/10/lotin/>
 13. <https://lex.uz/docs/5081435>
 14. “Халқ сўзи”. 1991йил 28 июн.
 15. Саидов Д. Тарихий номлар яна тикланди. – “ЎзАС”, 1990 йил, 27 июль.
 16. Мамажонов Д. Ўзбекистонда қайта қуриш даврида маданий ҳаёт (1985-1991 йиллар)// Автореф. дисс. фал. фан. док.–Тошкент: ЎЗР ФА. Тарих институти, 2018.–18 б.